

BOLALARDA ESTETIK DID RIVOJLANISHIDA MUSIQANING O'RNI*Go'zal Xakimjonova Abdunabi qizi**O'ZMPU talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda estetik didni shakllantirish jarayonida musiqa ta'limining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Musiqa san'atining inson ruhiyatiga ta'siri, uning hissiy-emosional rivojlanishga qo'shadigan hissasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa orqali go'zallikni anglash, didni rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirishning samarali usullari ko'rsatib berilgan. Maqolada musiqiy tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rni, estetik qadriyatlarni singdirishdagi roli hamda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: estetik did, musiqa ta'limi, musiqiy tarbiya, hissiy rivojlanish, ijodiy fikrlash, badiiy idrok, shaxs kamoloti, estetik qadriyatlar, pedagogik yondashuv, boshlang'ich ta'lim.

"РОЛЬ МУЗЫКИ В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА У ДЕТЕЙ"*Гузаль Хакимжоновна Абдунаби кизи, студентка УзГПУ*

Аннотация: В данной статье подробно освещается роль и значение музыкального образования в процессе формирования эстетического вкуса у детей. В научно-педагогическом аспекте проанализировано влияние музыкального искусства на психику человека, его вклад в эмоциональное развитие. Также показаны эффективные методы познания красоты через музыку, развития вкуса и формирования творческого мышления у учащихся начальных классов. В статье обоснована роль музыкального воспитания в развитии личности, его роль в привитии эстетических ценностей и необходимость использования инновационных подходов в образовательном процессе.

Ключевые слова: эстетический вкус, музыкальное образование, музыкальное воспитание, эмоциональное развитие, творческое мышление, художественное восприятие, личностное развитие, эстетические ценности, педагогический подход, начальное образование.

"THE ROLE OF MUSIC IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC TASTE IN CHILDREN"*Go'zal Khakimjonova Abdunabi qizi, student of UZMPU*

Annotation: This article extensively covers the role and importance of music education in the process of forming aesthetic taste in children. The impact of musical art on the human psyche, its contribution to emotional and emotional development are scientifically and pedagogically analyzed. Also, effective methods of understanding beauty, developing taste and forming creative thinking in primary school students through music are shown. The article substantiates the role of musical education in personal development, its role in instilling aesthetic values, and the need to use innovative approaches in the educational process.

Keywords: aesthetic taste, music education, musical education, emotional development, creative thinking, artistic perception, personal development, aesthetic values, pedagogical approach, primary education.

Bolalar estetik tarbiyasi — bu ularni go‘zallikni ko‘ra bilishga, his qilishga va qadrlashga o‘rgatish demakdir. Bola ko‘ngliga chiroy urug‘ini sepishdir. Qachonki bola atrofidagi narsalarning ozoda, tartibli va chiroyli ekanini ko‘rsa, uning didi ham asta-sekin shakllanadi. Rasm chizish, qo‘shiq aytish, she‘r yodlash kabi mashg‘ulotlar ham estetik tarbiyaning bir qismidir. Bola o‘z qo‘li bilan biror chiroyli narsa yaratsa, uning ichida quvonch paydo bo‘ladi va go‘zallik yaratishga intilish kuchayadi. Bolalarni **musiqa orqali estetik tarbiyalash** — bu ularning qalbiga ohang bilan go‘zallikni singdirish demakdir. Musiqa jonli san‘at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his-tuyg‘ularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o‘ylayntiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz yirik namoyondasi Abu Nasr Forobiy aytganidek, «Bu fan tana sog‘lig‘i uchun foydalidir». Shayx Sa‘diy «Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir»- degan edi. Hozirgi kunda dolzarb bo‘lib kelayotgan masala bolalarning qadriyatlarimizni bilmay qolishi, milliyligimizni anglamasligidir. Shuning uchun ham bolaning musiqaga ehtiyoji bor.

Bolalarni yoshiligidanoq san‘at, xususan, musiqiy asarlar orqali estetik olamga olib kirish, ularning qalbida nafislik va go‘zallikni qadrlash hissini uyg‘otish dolzarb pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, musiqiy ta‘lim va tarbiyaning tizimli yo‘lga qo‘yilishi orqali bolalarning estetik qobiliyatlari, musiqiy idroki hamda badiiy didi izchil rivoj topadi. Shunday ekan, biz musiqa o‘qitishni maktabgacha yoshdagi bolalardan, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlashimiz lozim. Chunki, maktabgacha ta‘lim hamda boshlang‘ich sinfda musiqa ta‘limotining poydevori qo‘yiladi. Musiqa – hayot va davr aksidir. Shuning uchun ham, boshlang‘ich sinfda musiqa madaniyati darslarini bolalarning hayotiy tajribalariga tayangan holda olib borish, badiiy ta‘lim beruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etmog‘i lozim. Zero, dasturda kuylash va tinglash uchun tavsiya etiladigan qo‘shiqlar va musiqiy asarlar, baxtli bolalik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, tabiatga muhabbat

haqidagi namunalardan iboratdir. Bolada estetik did, tarbiya shu tarzda shakllanadi. Bolaning tarbiyasi bolaligidan shakllanadi. Tarbiya poydevori mustahkam bo'lsa, kelajakda jamiyatning bir bo'lagi bo'ladi. Yoshligidan maktabda sinfdan tashqari ochiq tarbiyaviy soatlar o'tkazish, musiqa tarbiyasining ommaviy va to'garak shakllarini olib borish, bolalarga tabiatga, vatanga muhabbatni uyg'otishga, milliylik ruhini tarbiyalanishi uchun alohida vaqt demakdir. Bunga «Mustaqillik bayrami», «Bilimlar kuni», «O'qituvchilar kuni», «Alifbe bayrami», «Yangi yil», «Navro'z bayrami», bolalar shoirlari, san'atkorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Musiqa ritmi orqali bolada tartib rivojlanadi. O'zini sahnada tutishi, tarbiyasi, qanday o'z o'rnini topishni o'rganadi. Bugungi mustaqillik sharoitida ta'lim muammolarini hal qilishda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab axborot texnologiyasi va zamonaviy pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirish va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim. Musiqa san'ati estetik idrokning bitmas-tuganmas manbaidir, inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Inson doimo go'zallikka intilishi va kundalik hayotda, shu go'zallik qoidalariga amal qilishi kerak. Dars jarayonida bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o'yinlar o'quvchilarni xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, estetik did rivojlanadi, jismonan sog'lom bo'lishiga ko'maklashadi va ruhlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi. Biz yosh avlodni o'zbek xalqining musiqa madaniyati bilan tanishtirib, uning nafosatli his-tuyg'ularini rivojlantirishimiz, musiqa ta'limining saviyasini oshirishimiz kerak. Nazariy jihatdan olib qaralganda, musiqa va estetik did o'rtasidagi munosabat Aristotel davridan beri falsafiy tahlil obyekti bo'lib kelgan. Zamonaviy psixologiyada esa bu munosabat "emosional-intellektual uyg'unlik" kategoriyasi orqali izohlanadi. G. Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasida musiqiy intellekt insonning asosiy aqliy qobiliyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Aynan musiqiy qobiliyatning erta rivojlanishi, bola shaxsining boshqa ko'plab jihatlarini faollashtiruvchi katalizator sifatida qaraladi. Shunday qilib, estetik tarbiya va musiqiy ta'limning o'zaro uyg'unlashuvi bola ruhiyatida nafaqat go'zallikni anglash qobiliyatini, balki axloqiy-estetik qadriyatlarining ham asoslarini shakllantiradi. Empirik kuzatuvlar va pedagogik eksperimentlar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqa orqali ta'lim olgan bolalarda abstrakt fikrlash, fazoviy tasavvur, emosional barqarorlik va guruhda ishlash ko'nikmalari sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Xususan, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi ilg'or ta'lim tizimlariga ega davlatlar maktabgacha va maktab ta'limida musiqaga katta e'tibor qaratishi ushbu fan orqali rivojlanadigan ko'nikmalarining uzviyligi va ta'sirchanligidan dalolat beradi. Psixologik tadqiqotlar musiqaning bolalar tafakkuri va hissiyot dunyosiga integratsiyalashuvi bolaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga uzviy bog'liqligini isbotlagan. Ayniqsa, 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning musiqiy eshitish, ritmik idrok va melodiya orqali tuyg'ularni tushunish qobiliyatlari sezilarli darajada faollashadi. Bu esa estetik

idrokning shakllanishida eng muhim asosiy pog'onadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqa bilan muntazam shug'ullanuvchi bolalarning muloqot madaniyati, hissiy muvozanati, estetik didi, ijodkorlik qobiliyati va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'ladi. Bolaning estetik didini shakllantirish jarayonida musiqa faqat mazmunni yetkazish vositasi bo'lib qolmasdan, balki uning individual psixik xususiyatlari, hissiy holatlari va tafakkur faoliyatiga moslashgan kompleks vositaga aylanadi. Musiqa orqali bolada tabiatni tanitish, o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish kabi qator hislatlar shakllanadi. Shuning uchun musiqa darslariga, o'tish jarayonlariga alohida e'tibor berish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didini shakllantirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimining roli ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, uning samaradorligi turli omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, estetik tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va badiiy-ta'limiy dasturlarning joriy etilishi bolalarning estetik dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ko'plab tadqiqotchilar bu jarayonda uzluksizlik tamoyilining muhimligini ta'kidlaydi. Xususan, Vygotskiy (1978) bola rivojlanishida san'at va badiiy ijodning ta'sirini e'tirof etib, ijodiy tafakkur shakllanishida vizual tasvir va musiqaning o'rnini belgilagan. Dewey (1934) esa san'atning ta'lim jarayonidagi transformativ ahamiyatini tadqiq qilib, estetik tarbiyaning inson ongi va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatib bergan.

Yana bir muhim jihat — musiqa tinglash madaniyatini o'rgatish. Ya'ni bola musiqa eshitayotganda e'tibor bilan tinglashni, hurmat qilishni o'rganadi. Bu ham estetik tarbiyaning bir qismi hisoblanadi. Faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy jarayonlar bilan bolalarni qiziqtirish, ularda musiqani his qilishni o'rganishiga yordam beradi. Musiqa darslari, qo'shiq kuylash, oddiy ritmik mashqlar, turli milliy va jahon musiqiy asarlarini tinglash, tahlil qilish orqali bolalarda go'zallikka bo'lgan munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, musiqiy asarlardagi obrazlar, ohanglar va ritmlar orqali bola faqat estetik zavq olmaydi, balki ichki dunyosida sezgi, empatiya, mulohaza va anglashning yangi darajalariga ko'tariladi.

Adabiyotlar

1. Gardner, H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, 1983.
2. Aristotel. *Poetika*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1980.
3. Abdurahmonov, Q. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Ismoilov, R. *Musiqa ta'limi metodikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
5. Nurmatov, A. *Estetik tarbiya nazariyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
6. Vygotskiy, L.S. *Psixologiya rivoji haqida*. – Moskva: Pedagogika, 1991.
7. Davlat ta'lim standarti. *Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha*. – Toshkent, 2021.

8. Seydahmedova Zaynabxon. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING ROLI” maqolasidan
9. Forobiy, A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
10. Sadikov, Sh. Musiqa va ma’naviyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
11. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

